

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**MUYASSAR RAZZOQOVA**

# **AKADEMIK XONANDALIK ASOSLARIGA KIRISH**

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun  
o'quv qo'llanma*

«Musiq» nashriyoti  
Toshkent  
2014

*O'quv qo'llanma O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan  
(Bayonnoma № 4. 24.12.2013)*

**Ilmiy muharrir:**

Ravshan YUNUSOV – professor

**Taqrizchilar:**

Muqaddas RIZAYEVA – professor  
Rustam ABDULLAYEV – professor

Akademik xonandalik ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanmada ovoz xususiyatlari, uni yo'lga qo'yib tarbiyalash va boshqarish omillari, kuylashda nafas olish ko'nikmalari kabi muhim nazariy, amaliy, o'quv-uslubiy masalalar ko'rib chiqilgan. Bunda zamonaviy o'zbek xonandalik an'analari bilan jahon mumtoz vokal maktabining ta'lim uyg'unligiga urg'u beriladi.

Oliy va o'rta maxsus musiqa o'quv yurtlari akademik xonandalik ixtisosligi bo'yicha tahsil ko'rayotganlar uchun mo'ljallangan.

---

## **BIRINCHI BO‘LIM**

### **SO‘ZBOSHI**

Jahon xalqlari musiqa san‘ati rang-barang o‘lmas an‘analarni o‘z ichiga qamrab olgan. Uning ijodiy, ijroviy, uslubiy, ma‘rifiy kabi soha yo‘nalishlari ham talaygina. Bular orasida kuylash bilan bog‘liq bo‘lganlari etakchi o‘rin tutgani ma‘lum. Zero bevosita ijodiy ila ijroviy mumtoz mahsullari allaqachon inson ruhiyati ila ma‘naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan.

Sharq G‘arb xalqlarida so‘z, soz va ovoz uyg‘unligida yaralgan badiiy barkamol asarlar og‘zaki yohud yozma tarzda ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelgan. Ularda yuksak badiiy tafakkurga yo‘g‘rilgan go‘zal his va tuyg‘ular jonli ifodasini topadi. o‘ziga xos va ayni paytda o‘zaro mushtarak xislatlar mujassam.

Aytish joizki, el-yurtimizda teran bilim, keng tafakkur, munosib iste‘dod egalarining ijodiy izlanishlari tufayli kasbiy xonandalikning an‘anaviy, akademik hamda estrada turlari uzil-kesil shakllanib, ravnaq topish yo‘lidan shaxdam odimlab bormoqda.

Inson ovozi vositasida yaralgan va unda ijro etilish uchun mo‘ljallangan namunalarning paydo bo‘lishi cholg‘u musiqaga nisbatan ancha qadimiyroq, albatta. Hech shubha yo‘qki, u bizlardan juda uzoq, ibtidoiy zamonlarda ham mavjud bo‘lgan. Biroq, o‘sha paytlarda kuylash ko‘nikmalari kasbiy tus olmagan, xonandalik yo‘nalishi tarzida maxsus ixtisosliklarni hali tashkil etmagan edi.

Yaqin va O‘rta Sharq mintaqalarida, xususan Markaziy Osiyoda joylashgan ko‘hna davlatlarda, shahar saroylarida vujudga kelgan kasbiy musiqa san‘atida yakkaxonlik va hamnafaslik ijro shakllari qadimdan qo‘llanilgan. Bu haqda bizgacha etib kelgan turli xil eski manbalarda ishonchli ma‘lumotlar etarli. Oddiy ko‘rinishlari mahalliy mehnatkash aholi folklor musiqasi negizida, qonuniylashgani esa saroyning madaniy ko‘ngilochar hamda joriy etilgan zardushtiylik marosimlarida ancha erta paydo bo‘lgani isbotlangan.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida esa kasbiy yondashuv dastavval cherkov musiqasi orqali tasavvur etiladi. Cherkovdagi xor jamoalarida ishtirok etish uchun xonandalardan faqatgina parda tovushi bilan ohang tiniqligini saqlay olib, aytarli murakkab bo‘lmagan ritm asosi ravonligiga amal qilib kuylash talab etilgan, xolos.

Italiyada XVI asrga kelib Vinchentso Galiley<sup>1</sup>, Kachini, Peri va boshqalar cholg‘u jo‘rligi ostida yakka ovoz uchun mo‘ljallab musiqa asarlarini yarata boshlaganlar. Shundan buyon kompozitor tomonidan yozma ravishda belgilab qo‘yiladigan barcha nozik jilolar xonanda ovozida ifodalanishi talab etiladi. Demak, ana shu davrdan e‘tiboran Evropada tom ma‘noda xonandalik san‘ati yuzaga kela boshlagan, – deb hisoblashadi soha tarixchilari.

Shu boisdan G‘arbiy Evropa mamlakatlari vokal san‘atining rivojlanish yo‘lini mutaxassislar odatda uch davrga ajratishadi:

- ✓ XVII asr xonandalik maktabi, ya‘ni Kachinidan to Manchini davriga qadar;
- ✓ XVIII asr xonandalik maktabi Manchinidan to Garsiaga qadar;
- ✓ Garsidan e‘tiboran shu kunlargacha.

Tilga olingan shaxslardan faqat Kachini Florentsiya shahrida 1601 yilda bosilib chiqqan o‘zining «Le Nuove Musiche» («Yangi musiqa») nomli asarida ilk bor kuylash uslubiyatiga

---

<sup>1</sup> Butun dunyoga mashhur bo‘lgan fizik, astronom va mexanik, aniq tabiatshunoslik fani asoschilaridan biri Galileo Galileyning otasi.

doir aniqroq ko'rsatmalarni yozib qoldirgan ekan. Mazkur ilmiy nashrda muallif tomonidan eski ustalarning uslubiyatini davom ettirgani ta'kidlab o'tilgani ma'lum. Demak, Kachini davriga qadar, ya'ni XVI asrdayoq kasbiy-uslubiy yondashuv mavjud bo'lgan, – degan xulosaga kelish mumkin.

Xonandalikda tovush hosil qilish texnikasi borasida jiddiy tafovutlar borligi sababli Manuel del Popolo Visente Garsia maktabini, ko'pchilikning ta'kidlashiga ko'ra, eski italyan maktabining shunchaki davomi deb hisoblamaslik kerak. Garsia frantsuz maktabining asoschisi deb tan olingani ma'qulroq. Chunki mazkur maktab zamirida ishlab chiqilgan asoslar uning ilmiy-uslubiy asarida bayon etilgan tayanch tamoyillarga bevosita to'g'ri keladi. O'z navbatida bu asoslar qariyb XIX asrga qadar Frantsiyada ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan.

Zamondoshlar ta'rifiga ko'ra o'sha davrda Italiyada vokal san'atining rivoji ancha yuqori pallada bo'lgan. Xonandalar barcha texnik qiyinchiliklarni engishidan tashqari kuchli dramatik rollarni ijro etishda yuqori cho'qqilarni zabt etishgan. Jumladan, legato vositasida hamda urg'ularni mantiqan to'g'ri qo'yib, his-tuyg'ular ifodaviyligiga e'tibor bergan holda kuylash uslubi etakchilik qilgan. U zamonlarning ijroviy repertuari nafaqat katta maktab o'tashni, balki buyuk ovozlarning paydo bo'lishini ham taqozo etgani ma'lum.

Keyingi davrlarga nazar tashlar ekanmiz, bunday ovoz sohiblari bo'lgan san'atchi xonandalarning safi negadir birmuncha siyraklashganini ko'ramiz. Aytishlaricha, hozirgi paytlarda hatto G'arbiy Evropa xonandalik san'atining beshigi bo'lmish Italiyada ham yaxshi ovozlari tanqisligi sezilmoqda.

Xo'sh, ushbu noxush holat nimalar bilan izohlanadi?, – degan haqli savol tug'iladi. Buning asosiy sabablarini tilga olsak, avvalambor, yoshlik chog'larida, ayniqsa rasta bo'lgan paytda ovozni suyiiste'mol qilish oqibatidir. Yana, asrlar mobaynida sinalgan mumtoz ta'lim maktabidan chekinishlarda ham kuzatiladi. Ya'ni ovozni notabiiy qo'yib, kuylashni o'rganish paytida uni suyiiste'mol qilish. Nihoyat, ijrochilik faoliyatini kasbiy jihatdan etilishdan barvaqtroq boshlab yuborishda deyish lozim. Demak, birinchidan bu - eng yangi opera asarlarining nihoyatda qiyin va murakkab musiqiy-uslubiy til xususiyatidan kelib chiqadi. Ikkinchidan, o'z ovozini har tomonlama tayyor holatga keltirish uchun shogirdlarda mehnatsevarlik ila sabr-qanoat etishmasligidan deb tushunish mumkin. Endi shu va boshqa sabablarga batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Yosh bolaning hiqildog'i hali juda kichik bo'ladi. Mutaxassislar o'sishining juda sekin kechishini aniqlashgan. Faqat o'smirlik pallasiga etganida uning rivojlanishi tezlashar ekan. Shunda hiqildoq atigi bir yilning ichida keskin o'zgarib, ayrimlarda hatto ikki barobar uzunlashib kengaygani kuzatilgan.

Ma'lumki, ovozning «rasta» bo'lishi deb ataladigan mazkur palla qizlarda asosan 13 yoshdan 15 yoshgacha, o'g'il bolalarda esa 15 - 18 yoshlar orasida ro'y beradi. Bu muddat ichida ovoz kuchsiz, bo'g'iq, ko'pincha hatto butunlay jarangsiz holatga tushib qoladi. Ovoz ko'lami pasayadi, tusi esa, ayniqsa o'g'il bolalarda, katta kishilarnikiga yaqinlashadi. Bu o'zgarishlar birdaniga emas, balki sekinlik bilan, yashirin vujudga keladi. Shu boisdan faqat tajribali o'qituvchi bola hiqildog'ining betob holatini sezishga qodir.

Ma'lumki, so'nggi paytlarda mahalliy aholi o'rtasida havaskorlik qo'shiqchiligi qatori xor qo'shiqchiligi ancha rivojlandi. Ko'p o'quv yurtlarida, qizlar va o'g'il bolalar ta'lim olayotgan muassasalarda o'quvchilardan iborat badiiy to'garaklar tashkil etilgan. O'quvchining biroz ovozi bor bo'lsa bas, - u albatta ansambl yoki xorga qatnashishi lozim ko'riladi. To'garak rahbari musiqachi bo'lsa-da, ayrim istisnolardan tashqari, bevosita xonandalik bo'yicha mutaxassis bo'lmaydi.

Qiz yo o'g'il bola birgalashib kuylashda ishtirok etarkan, ko'pincha xazil o'mida, yoki o'zini ko'rsatish uchun, o'rtoqlari va yoki boshqa tinglovchilar o'rtasida ovozining bor kuchi bilan maqtangandek bo'lib, qichqiradi. Shunda tovushlog'ich paychalarning kuchayganini va hiqildoq mushaklarining sun'iy ravishda taranglashganini bilmasdan, o'ziga zarar keltirayotganini anglab etmaydi. Bular kamlik qilgandek, ovozida rastalanish alomatlari paydo bo'lganiga ahamiyat bermaydi.

Ushbu pallaning boshlanishida ovoz tusi asosan saqlanishi bois, boshqa o'zgarishlar ham asta-sekin ro'y beradi. Ba'zida yosh ijrochilar bunday o'zgarishlarga aytarli diqqat

qaratishmaydi. Sezib qolib esa, kuylash noqulayligidan, ovozni faqat kuchanib chiqarish sababidan, undan ham ko'proq darajada hiqildoq mushaklarini zo'riqtirib yuborishadi. O'tish paytida esa uni mutlaq tinch holatda qoldirish kerak. Ovoz kuchanib chiqishi sababli yo'qoladi, ba'zilar hatto qaytib tiklab bo'lmaydigan darajagacha etadi.

Rasta paytida qiz yohud o'g'il bola kam kuylasa, ya'ni hali ovozini butunlay buzishga ulgurmagan holda uning tabiiy kuchi, jarangi va mayinligi yo'qotilsa-da, tiklash imkoniyati bo'ladi. Keyinchalik, tajribali o'qituvchining sabr-bardoshi, ustaligi, e'tiborli yondashuvi tufayli ovozini to'g'ri yo'lga qo'yish bilan tuzatish mumkin. Biroq, takrorlashga to'g'ri keladi, ovozing tabiatan o'zligini unga hech kim qaytarib bera olmaydi.

Yosh avlodning musiqiy-estetik tarbiyasi bilan shug'ullanish, shu tariqa bolalarning bevosita musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, - ezgu maqsadlarimizdan biri, albatta. Muntazam faoliyat olib borayotgan bolalar turli xil ansambllar va xor jamoasi qatnashchilarning eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, ritmni sezishga o'rgatadi, savodini oshiradi. Ammo ularning rahbarlari nafaqat jozibador asarlar ijro etilishini, balki qaramog'idagi mo'rg'ak o'quvchilarning ovozlari ham inobatga olishlari lozim.

O'qituvchi to'g'ri nafas olish, tovushni to'g'ri hosil etish haqida umumiy tushunchalarni o'quvchilarga etkazish bilan bir vaqtda ularning ovozlari zo'riqishdan asrashga alohida e'tibor qaratishi lozim. Xususan, ijro uchun tanlagan asarlar imkon qadar faqat o'rta diapazonda bo'lishi ayni muddao. Muhimi esa, - jamoa a'zolarini muntazam kuzatib borgan holda ovozlarning jarangida biror arzimas tuyulgan o'zgarish sezilganda, ya'ni rasta payti boshlanishi bilan kuylatishni darhol to'xtatishlari lozim.

Ovozning rasta bo'lish payti ba'zi yoshlarda barvaqtroq kelgandek bo'ladi. Chunki bolaning hiqildog'i hali o'spirinlikka o'tishdan avvalroq o'zgarish boshlaydi. Bunday paytlarda ovoz bo'g'iq bo'lib pasayadi. Ammo ovozdagi bunday o'zgarishlar, hiqildoqning hastaligi barobarida, faqat mahalliy voqelikni yuzaga chiqaradi. Bu vaziyatda tanada hali jiddiy o'zgarishlar kuzatilmaydi. Hiqildoqning ana shu holati bir necha bor qaytarilishi mumkin, toki ovozning haqiqiy rastalanishi boshlangunga qadar.

Boshqa toifa vaziyatlar ham, ayniqsa o'g'il bolalarda uchrab qolishi mumkin. Masalan, bolaning ovozi rasta davridan o'tib ketgandek bo'ladi. Deylik, yoshlik chog'larida bolakay tenor ovozig ega bo'lgan. Favqulodda, u ovozi o'zgarish sodir bo'layotganini sezadi. Natijada ovozdagi yuqori pardalar yo'qoladi, tusi o'zgaradi va tenor ovozi baritonga yoki basga ko'chadi. Shunday voqealar ham sodir bo'lganki, o'zgarishlar ikki, hatto uch marotaba kechgan. Masalan, o'spirin ovozi basdan yana tenorga qaytgan. Bularning hammasi hiqildoqning davomli hastalik holati paytida bo'lib o'tadi.

Bular birmuncha ertaroq boshlangan yoki kechikkan rasta muddati yuzasidan ba'zi misollar. Alqissa, bola hiqildog'ini charchatish mumkin emas. Bu vaziyatda u kuylashni butunlay to'xtatgani ma'qul. Aks holda rostakam rasta paytidagi kabi, ovozidan osonlikcha ayrilib qolish havfi kuchayadi.

Yuqorida aytilgandek, bolalar ashula jamoalariga haqiqatan tajribali o'qituvchilar boshchilik qilishlari lozim. Ular har bir ishtirokchi ovozini qadrlab, xususiyatlarini tushungan va bilgan holda to'g'ri tarbiyaga yo'naltiradi. Ana shundagina chin ma'noda xushovoz, shirali va yoqimli ovoz sohiblari el-yurtimizda ancha ko'payishi mumkin.

Darhaqiqat, bo'lg'usi xonanda ovozini to'g'ri qo'yish, ya'ni juda nozik bo'lgan kuylash «cholg'usini» uzil-kesil shakllantirish o'qituvchi uchun nihoyatda muhim, ayni paytda eng murakkab ustozlik vazifasini tashkil etadi.

Har bir ovozning sadolanishida uchraydigan turfa jilolarni ajratib olish, tovush go'zalligini buzayotgan, tabiiy jarangiga to'sqinlik qilayotgan har xil toifa murakkab tuslaridan forig' etish uchun mukammal darajadagi tinglov malakasi bo'lishi shart. O'quvchining ovozini mutanosib qo'yish uchun barcha ovoz organlari, ularning anatomiyasi va fiziologiyasi bilan shu qadar yaxshi tanishib chiqmoq zarur.

O'qituvchining mehnati ko'zlangan muvaffaqiyat bilan yakun topmas ekan, yuqori malakali o'qituvchilarga ehtiyoj ortaveradi. Juda ko'p hollarda o'quvchilar ovoz mushaklarini mashqlar bilan asta sekin rivojlantirish o'rniga ovozlarni zo'riqtirishadi. Yoki kuylash sifatini oshirish

o'rniga ijro etilgan asarlar soni ketidan quvishadi. Ba'zilar hali qo'yilmagan ovozda romans, ariya va hatto bus-butunligicha operalarni kuylatishadi. Ular bu kabi nojo'ya harakatlar kelgusida xonanda ovozi uchun qanday zararli oqibatlarga olib kelishini tushunishmaydi, yoki tushunishni istamaydilar.

Juda ko'p hollarda o'quvchilar, ustozning rayidan qat'i nazar, ansambllarda, xorlarda, ko'ngilochar tadbirlarda chiqib kuylashadi. Yoki, masalan, musiqiy qobiliyatini tezkor o'stirish uchun solfedjio fanini o'zlashtirishadi. Ovoz qo'yishning dastlabki bosqichida esa bular zarar keltirishdan holi emas.

Kuylashni ixtisoslashgan darajada o'rgatish va o'rganish, quyida yanada yaqqolroq ko'rinadiki, tizimli yondashuvni hamda ovoz organlarining bosqichma-bosqich rivojlantirib borishini talab etadi. O'quvchi, ayniqsa boshlang'ich paytlarda, o'z ovozini diqqat bilan o'zi kuzata bilishi lozim. U to'g'ri nafas olishni o'rganish ustida o'ylashi, hosil bo'lgan tovushni to'g'ri anglab, yo'nalishini ko'zlab olishi, diapazon ko'lamining faqat o'rta qismida mashq qilishi lozim.

Afsuski, har xil jamoalardagi kuylashda bu deyarli hammasi e'tibordan chetda qoladi. Katta ansambl va xor ishtirokchilari, hatto qo'yilgan ovozlari bilan, o'zlarini yaxshi eshitmasdan kuylagan holatda tovush chiqarishni bexos kuchaytirib yuborishadi. Ovoz kuchaytiradigan texnik moslamalar tabiiy tinglov imkoniyatini yanada og'irlashtiradi. Endigina kuylashni boshlaganlar haqida esa umuman gapirmasa ham bo'ladi.

Kuylash kishi musiqiy qobiliyatini o'stiradi deyiladi. Haq gap, bu masalada e'tirozga o'rin yo'q, albatta. Ammo, xuddi shu maqsadlarda xilma-xil jo'rovliklarda, hamnafaslikda, jumladan, duet, tertset singari ixcham xonandalik ansambllarida ishtirok etish mumkin. Chunki bu holatda har bir kuylovchi o'z ovozini kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

Kuylash to'g'risidagi aytilgan barcha fikr va mulohazalarni solfedjio fanida hali qo'yilmagan ovoz bilan kuylovchi yosh xonandalarga nisbatan qo'llash mumkin. Bu erda o'quvchi ma'lum intervalni topish harakatida tovushni to'g'ri yoki noto'g'ri chiqarayotgani haqida o'ylamaydi. Intervallar bo'yicha ba'zilar soatlab mashq qilishi oqibatida u ovoz chiqarish paylarini koyitib qo'yadi. Shu boisdan solfedjio fani maxsus musiqa o'quv yurtlarida o'quvchining ovozi ma'lum daraja qo'yilgandan keyin, ya'ni ikkinchi bosqichning ikkinchi yarmidan o'zlashtira boshlansa ayni muddao.

Hozirgi kunda dunyo opera teatrlarining ijro repertuarida dramaturgiyasi nihoyatda kuchli operalar ko'p. Shu jumladan buyuk nemis kompozitori Rixard Vagner asoschi deb tan olingan, uning murakkab ijodiy maktabi ta'siri ostida paydo bo'lgan musiqiy dramalar talaygina. Bunday asarlarning aksarida tom ma'nodagi go'zal kuylash san'ati ikkinchi darajali o'ringa ko'chgani haqli ravishda e'tirof etilgan. Masalan, rus operalaridan Sergey Prokofevning «Urush va tinchlik», Dmitriy Shostakovichning «Katerina Izmaylova», o'zbek operalaridan esa Ikrom Akbarovning «So'g'd elining qoplani»da shunga o'xshash nisbatlar borligini ham aytish mumkin. Bu toifagi operalarda xonanda ayrim hollarda go'yo orkestr sadolarini to'ldiruvchi vazifasini bajargandek bo'ladi. Zero unga juda oz payt rosmama kuylashga to'g'ri keladi. Bu erda butun ma'no musiqiy nutqsimon rechitativlarda, deyarli barcha vaziyatlardagi orkestrning qattiq jo'rliigi ostida mujassam ko'rinadi. Xayron qoladigan joyi yo'q, bu vaziyatda xonanda o'zini ko'rsatish uchun butun boshli rolni ovozining bor kuchi bilan kuylashga majbur bo'ladi.

Darhaqiqat, hozirgi zamonda opera xonandalaridan birinchi galda kuchli ovoz talab etilmoqda. Shu boisdan sahnaga qadam ranjida qilgan xonanda shunday tayyorgarlik ko'rgan bo'lish kerakki, u ase forte darajada erkin, ortiqcha kuchanmasdan va ovoz kuchini suyiiste'mol qilmasdan kuylash kerak. Binobarin, ko'pchilik o'quvchilarga xonanda bo'lish uchun ovoz qo'yilgan bo'lsa bas, deb tuyuladi. Bular bir nechta romas va ariyalarni o'zlashtirib, o'qituvchi bilan mashg'ulotlarni naridan-beri tugallab, bor vazohati bilan sahnaga yo'l topishga urinishadi.

Xo'sh, bu urinishlar oxir-oqibat nima bilan yakun topadi?! Yosh xonanda yorqin ovoz sohibi bo'lgan taqdirda muvaffaqiyat qozonishi tabiiy. Biroq, uning muddati ko'pga cho'zilmaydi. Uch-to'rt yil o'tib u kuchanibroq kuylayotganini o'zi sezib qoladi. Avvaliga sababini vaqtincha mazasi yo'qligi bilan izohlaydi. Lekin, ovozi yo'qolib borayotganiga tez orada uzil-kesil iqror bo'ladi.

Tinglovchilar qarshisiga barvaqtroq chiqqan xonandaning ovozi etarli imkoniyatlarga ega bo'lmasa, qoldirgan birlamchi noxush taassurot uning butun kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatishi

mumkin. Tajribasi katta ustozlar aytishadi-ku: ilk bor kuylab chiqish uchun teatr sahnasiga yo'l topish qiyin emas, ammo muvaffaqiyatsizlik ro'y bergan taqdirda ikkinchi marotaba imkon topish ancha qiyin kechadi.

Shuning uchun o'quvchilarga ustozlar tomonidan beriladigan to'g'ri maslahat, - sabr-qanoatli bo'lish, maxsus xonandalik ta'limini oxiriga qadar etkazish lozimligini unutmaslik kerak. Chunki shundagina san'atkorlik bo'yicha o'zining kasbiy kelajagiga komil ishonch bildirish uchun mustahkam asos paydo bo'ladi.

## KUYLASH OMILLARI

Har bir sog'lom kishi ovoz bilan siylangan. Ammo har qanday ovoz maxsus takomillashtirishga moyil emas. Markaziy Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda tabiatan kuchli va jarangdor ovozlari ko'p uchraydi. Biroq, afsuski, ularning talaygina egalari «musiqiy qobiliyat» deb yuritiladigan fazilatdan yiroqligi aniqlanadi. Ya'ni, ular yangragan parda tovushini aniq va tiniq takrorlay olishmaydi. Bu o'rinda ovoz imkonini mavjud kishining xonanda-san'atkor bo'lishi uchun eng zaruriy shartlaridan biri - eshitish qobiliyatiga egaligi. Shunday odamlar uchraydiki, xonandaning noto'g'ri kuylayotganini eshita biladi, ammo o'zi tovushni aniq ololmaydi. Ba'zilar tovush chiqarish ko'nimasi xunlik, bu holda yaxshi maktab ko'rsa tuzatiladi. Ammo, aksar misollarda bu qusurlar tabiiy kamchiliklardan bo'lgani sababli deyarli tuzatib bo'lmaydi nuqsonlar sirasiga kiradi.

Kuylashni o'rganishda istalgan natijalarga erishmoq uchun pishiqqina musiqiy xotira va ritmni sezish qobiliyatiga ega bo'lish shart. Chunki bularga, kamdan kam uchraydigan istisnolardan bo'lak, mehnat qilish bilan erishib bo'lmaydi.

Tabiat in'om etgan ovoz tusi xonandaning kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotda ba'zan shunday ovozlari uchraydiki, ularning egalari ajoyib eshitish qobiliyati, musiqiy fazilatlariga qaramasdan, o'qitishga yaroqsiz. Buning sababi shundaki, tom ma'noda u xushovoz emas. Ovoz tusi o'ziga ham, o'zgalarga ham zavq bag'ishlamaydi va shu bois xonandaga istalgan muvaffaqiyat keltira olmaydi. Yaxshi ta'lim maktabi ovoz tusi kamchiliklarini birmuncha tuzatishi mumkin, ammo uni o'zgartirishga ojizdir.

Nihoyat, bo'lg'usi xonanda-san'atkor shu kasb talab etadigan jozibaga ham ega bo'lishi shart. Bunga ham mashqlar bilan erishib bo'lmaydi va professordan o'quvchiga yuqtirilmaydi. Balki faqat tabiat tomonidan in'om etilgan xislatdir.

Kishi o'zini san'atkorlik mehnat faoliyatiga bag'ishlamoqchi ekan, muvaffaqiyat keltiruvchi omillarni erinmasdan to'g'ri chamalashi lozim. Ya'ni, u ovoz vositalarini kasb yo'nalishi, tanlangan ixtisoslik uchun yaroqliligini bilmog'i darkor. Tabiiyki, endigina qadamlarni qo'yayotgan o'quvchi-xonandaga buni uzil-kesil aniqlab ko'rsatish ilojisi yo'q.

Inson hiqildoq'ining ichki tomoni shilliq parda bilan qoplangan bo'lib, ko'pgina harakatlanuvchi tomoq kemirchaklaridan iborat. Ular turli xildagi bog'lamalarga ega. Bu kemirchaklar o'ziga xos mushaklar yordamida har biri alohida-alohida ham, hammasi birgalikda ham harakatga tushadi.

Hiqildoq nafas o'tuvchi tomoq bilan birga murakkab musiqiy cholg'uni tashkil etadi. Unda nafas olinganda havo tomoq va hiqildoqdan o'tib ularga ta'sir ko'rsatadi. Tarang tovush paychalarining tebranishi natijasida esa tovush hosil bo'ladi.

Tovush torlari o'zining taranglashuv darajasini o'zgartirib turadi. Uning bu imkoniyati ko'proq yoki kamroq tortilishga olib keladi. Tovush balandligi esa ma'lum fursatdagi tebranishlar soniga bog'liq.

Mushaklar yordamida hiqildoq butunligicha o'zining joylashuvini o'zgartiradi. Agar yutish paytida barmog'imizni qo'shtomoqqa qo'ysak, unda uning avval ko'tarilishini, so'ngra pasayishini sezamiz. Bu - butun hiqildoqning to'liq ko'chishidan dalolat beradi. Tilimizni chiqarganda hiqildoq ham ko'tariladi, qisqarganda tushadi. Shuning uchun ham hiqildoqning qo'zg'almasligi tilning qo'zg'almasligiga bog'liq.

Tana a'zolaridagi barcha harakatlar ichki a'zolar, shuningdek, hiqildoq va mushaklar faoliyati bilan bog'liq. Shu boisdan, umuman, mushak nimaligiga tushuncha berish lozim.

Odamning tana terisi ostidagi tuzilmalar asosan quyidagilardan iborat:

- 1) har xil qalinlikda bo'lgan va bir-biriga bog'langan mayin tola to'plari;
- 2) ushbu to'plarni o'zaro bog'lab turuvchi to'qimalar;
- 3) yog';
- 4) qon tomirlari;
- 5) asab tolalari.

Tola to'plari mushak to'qimalarini tashkil etadi. Ularning bir necha to'p majmui mushak deb yuritiladi.

Mushaklar qisqarish (kichrayish) va bo'shalish (kengayish) xususiyatiga ega bo'lib, ularning bir uchi suyak bilan bog'langan paylarga o'tadi. Bular o'zaro birlashgan holda o'z navbatida suyaklarga biriktirilgan bo'ladi.

Mushaklarning qisqarishi va uzayishi ikkita suyakni bir-biridan uzoqlashtiradi yoki bir-biriga yaqinlashtiradi. Shu orqali barcha tana a'zolariga harakatlanish imkoni tug'diriladi. Umuman olganda, mushaklar yana bir xususiyatga ega. Ular qisqarayotgan paytda qandaydir kuch bunga yo'l qo'ymasa, u holda qalinlashib, qattiqlashadi.

Har qanday sado, ayniqsa kuychan tovush paydo bo'layotgan paytda uning balandligi va qisman tusining o'zgarishi nafaqat ovoz torlarining taranglik darajasi va zichligiga, balki hiqildoqda ovoz chiqish oraliq'ining kengligi va uzunligiga, hiqildoqning joylashuvi va h.q.larga bog'liq. Bularning hammasi hiqildoq kemirchaklarining o'zaro joylashuvi o'zgarishidan, ular esa o'z navbatida har xil hiqildoq mushaklarining harakatidan kelib chiqadi. Mushaklarning ikkala uchi hiqildoqning ikkita har xil kemirchagiga bog'langan, yoki uning bir uchi hiqildoqning qaysidir kemirchagiga, boshqasi esa o'zga organlarning suyagiga bog'langan bo'ladi.

Inson ovozida tovushning uzil-kesil shakllanishi uchun quyidagi omillar bo'lishi shart:

1) hiqildoqning sokin holatida (ya'ni, nafas olish paytida) doim yopiq turgan ovoz chiqarish oraliq'i ochilishi;

2) ovoz torlarining taranglashuvi bilan hosil bo'lgan tovush balandlikka mos kelishi;

3) ushbu taranglashgan ovoz torlari nafas chiqarilgan paytdagi havo kuchi bilan tebranish holatiga kelishi lozimdir.

Laringoskopik tekshiruvlarda ovoz torlarining ko'tarilishi va pasayishini ko'rish mumkin. Ammo, bunga o'lik hiqildoq bilan tajriba o'tkazib iqror bo'lish mumkin. Unda barcha kemirchaklar, bog'lamalar va mushaklar buzilmagan holatda bo'lsagina, albatta.

Nafas olingandan so'ng tovush hosil etmoqchi ekanmiz, hiqildoqning barcha mushaklari bir zumda qisqarishi kerak. Nazariy jihatdan ushbu holatni ikkiga ajratish mumkin:

1) tayyorlov payti, ya'ni ovoz chiqarish oraliq'ining yopilishi va ovoz torlarining taranglashuvi;

2) tovush hujumi, ya'ni ovoz torlarini tebranish holatiga tushirish.

Vokal uslubiyotida yana bir muhim narsa tovush hujumi deb ataladi. Birinchi darslardan shunga e'tibor berish kerakki, tovush hujumi tetik va mustahkam bo'lishi kerak. Chunki sustkash, mayin tovush hujumi tovush paychalarini tez birlashtira olmaydi. Natijada ovoz o'tkir chiqa olmaydi.

Ko'pchilik tovush hujumini kuchaytirilgan, jadallashgan tovush bilan chalkashtiradi. Akademik vokal san'atida qichqirqli ovoz deyarli ishlatilmaydi. Tovush hujumi esa doim ishlatiladi.

Har bir xonanda muayyan tartibdagi hiqildoq kemirchaklarining joylashuvi tufayli faqat ma'lum toifada tovushlar qatorini hosil etish imkoniga ega. Bunday tovushlar ko'lami registr deb ataladi.

Ushbu tovushqatorning eng baland nuqtasiga etganda shu narsa ayon bo'ladiki, xonanda undan balandroq tovush chiqarsa, hiqildog'ida o'zgarish ro'y beradi. Shuningdek, hiqildoqning yuqori qismida joylashgan ayrim rezonatorlar shaklida ham o'zgarish kechadi. Bu tovushlarning xarakteri, ya'ni tusalari ishlanmagan ovozlarda avvalgilardan sezilarli darajada farq etadi<sup>2</sup>. Va ular endi tovushlarning keyingi to'piga mansub bo'ladi. Hiqildog'i va uning ustidagi bo'shlig'ida paydo bo'lgan ana shunday o'zgarishlarsiz xonanda balandroq tovushni chiqara olmaydi.

Registr nomlari kuylovchining ma'lum sezish alomatlaridan kelib chiqqan. Masalan, birinchi registr tovushlari ko'krakdan keladi, shu boisdan «ko'krak registri», uchinchi esa boshga

<sup>2</sup> Ba'zan istisnolar ham uchraydi.



ta'sir etgani sababli «bosh registri» deb yuritiladi. Ammo, bu nomlar asl mohiyatiga aytarli to'g'ri kelmaydi. Chunki tovush hiqildoqda paydo bo'ladi. Faqat quyi tovushlar sadosi ko'proq ko'krak bo'shlig'ida, ya'ni hiqildoqdan pastroqda joylashgan bo'shliqda, yuqori tovushlar esa hiqildoqdan yuqoriroqda joylashgan bo'shliqda seziladi.

Registr nomlariga kelsak, o'quvchilar chalg'imasligi uchun, quyidagi tartibda belgilangan:

Birinchi registr – «ko'krak» registri;

Ikkinchi registr – «aralash» registr;

Uchinchi registr – «bosh» registr.

O'zbek akademik vokal san'atini rivojlantirish uchun, avvalambor, shu fan muallimlari adabiy o'zbek tilini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi shart. Talabalar ijro etishi uchun tanlab olingan namunalarning mazmun va mohiyati nimalardan iborat ekanligini izohlab tushuntirishiga tez-tez zarurat tug'iladi. Nafas olish jarayonida milliy ruhni, koloritni tilni vositasida ham yaxshi etkazib bera olish kerak bo'ladi<sup>3</sup>.

Milliy negizda bastalangan qo'shiq, ashula, romans, opera ariyalarini maromiga etkazib aytish uchun, ayrim hollarda rezonator bilan ko'krak qafas tovushini qo'shib olib borishga to'g'ri keladi. Masalan: Muxtor Ashrafiyning «Dilorom» operasida Dilorom partiyasi, markaziy ovoz, yuqori ovoz va Uchinchi aktdagi «Netay qon yig'lamay oh» ko'krak ovozi uchun mo'ljallab yozilgan.

Bu partiyani ayta olish uchun keng diapozonli soprano ovozidan tashqari xonandaning tovushni boshqarish mahorati baland darajada bo'lishi kerak. Ayni shuning uchun ovozni usta muallim sayqallashtiradi. Qorin nafasi, ko'krak ovozi (medium) va rezonatorning o'zaro harakatlanishi ancha takomillashgan bo'lishi lozim.

Xonanda o'z diapazonining barcha pardalarini eng pastkisidan eng yuqorigacha kuylash imkoniga ega bo'lishi uchun beshta asosiy omil vujudga kelishi shart. Bular:

- 1) ovoz torlari tortilishining o'zgarishi;
- 2) ovoz chiqarish oralig'ining asta sekin torayishi;
- 3) fonatsiya paytida nafas olish oralig'ining yopilishi;
- 4) ovozning, ya'ni hiqildoqdagi ovoz chiqarish oralig'ining tobora qisqarishi;
- 5) hiqildoq tepasida joylashgan rezonator bo'shliqlarining zarur o'zgarishlari.

Bu holat laringoskop vositasida kuzatilganda ovoz chiqarish oralig'i o'zining orqa tomonidagi boshqa qismiga qaraganda bo'rtiqchalarda torayganini ko'rish mumkin bo'ladi. Natijada u biroz uzunlashgan berk egri chiziqqa - elipsoidga o'xshaydi.

Hiqildoq mexanizmidagi bu o'zgarish:

- ✓ bas ovozida kichik oktavaning «lya bemol» yoki «lya» tovushida;
- ✓ bariton ovozida kichik oktavaning «si bemol» yoki «si» tovushida;
- ✓ tenor ovozida kichik oktava «si» yoki «do» tovushida;
- ✓ kontralto bilan metstso soprano ovozida birinchi oktavaning «mi bemol» yoki «mi» tovushida;
- ✓ soprano ovozida birinchi oktava «fa» tovushida ro'y beradi (keyingi betdagi rasmga qaralsin).


Ko'rsatilgan holatda olingan tovush ikkinchi registrga mansub bo'ladi.

Shunday qilib, bir registrdan ikkichisiga o'tishda har doim bir xildagi me'yorni aniqlab va belgilab bo'lmaydi. Yaxshisi, ona-tabiatdan o'rnak olish kerak. Chunki shu va boshqa jihatlar yuzasidan u yagona va eng oqil rahnamodir. Bu narsa shuning uchun ham muhimki, u yoki bu registrning yuqori tomonga kengaytirilishi qanchalik zarar keltiradigan bo'lsa, eng yuqori registrga pastkisini o'tkazish shunchali ovozga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday parda tovushlari g'ayri tabiiy va eshitilishi sust bo'lib chiqadi.

Biroq, ushbu umumiy qoidaning istisnosi ham uchraydi. Xususan, ayol kishilarda birinchi registr tovushlari hech qachon birinchi oktavadagi fa tovushidan ko'ra o'zib ketishi mumkin emas.

Kuylovchining ovozida registrlar ajratilar ekan, tovushqatorlarni alohida-alohida mashq qildirayotgan o'qituvchilar katta xatoga yo'l qo'yadilar. Registrlarni bir-biridan ajratish emas, balki uyg'unlashtirish lozim. Buning uchun dastlabki mashqlarni nafaqat pastdan yuqoriga, balki yuqoridan pastga qarab aytish foydali. Masalan, beshta notadan iborat: do, re, mi, fa, sol gammasini do tovushidan boshlamasdan soldan boshlab, do tovushiga borib tugatish kerak.

<sup>3</sup> Qarang: Fattohxon Mamadaliyev. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. «Yangi asr avlodi», Toshkent, 2001



## OVOZ TURLARI

Ayol xonandalik ovozlari quyidagi turlarga ajratiladi:  
Soprano. U o'z navbatida quyidagi uch xildan iborat.

a) dramatik soprano – kuchli, jarangdor ovoz, to'liq tovushli, ayrim istisnolardan tashqari rangin jilolanishga moyilligi kam.

Jakomo Puchchini qalamiga mansub mashhur «Toska» operasidan bosh qahramon partiyasi soprano ovozi uchun mo'ljallab yozilgan. Ushbu operaning ikkinchi pardasida yangraydigan ariyadan bir lavhani misol sifatida keltiramiz.

### TOSKA ARIYASI «TOSKA» operasidan, 2-parda

J.Puchchini (1858-1924)

*con grande sentimento*  
*p*  
Sem - pre con fe sin - ce - ra la mia pre

*dolcissimo con grande sentimento*  
*pp*

ghie - ra ai san - ti ta - ber - na-co - li sa - li. Sem - pre con

*(alzandosi)  
con anima* **f**

fe sin-ce - ra, die - di fio - ria - gl'al - tar.

b) koloraturali soprano yoki engil soprano – tovushi kuchsizroq, ammo egiluvchan, rangin va har xil bezaklanishga, jumladan, stakkato, tovlanishlar va h.k. ga qodir ovoz. Mazkur ovoz uchun Wolfgang Amadey Motsartning «Teatr direktori» operasidan Zilberklang rondosi misol bo‘la oladi.

ZILBERKLING RONDOSI  
«Teatr direktori» operasidan

V.A.Motsart (1756–1791)

**Allegretto**

Nichts ist mir so wert und

teu - er, als dein Herz und dei - ne

Hand, als dein Herz und deine Hand.

*cresc.* *f*

Voll vom reinsten Liebesfeuer geb' ich

*p*

dir mein Herz zum Pfand, geb' ich dir mein Herz zum Pfand

*f* *p*

v) lirik soprano – o'rtacha kuchga ega ovoz, biroq bus-butun, shu boisdan bunday ovoz sohibalari dramatik partiyalarni ham ijro etish imkoni bor. Bu toifa ovozlari ba'zida juda yaxshi ranglarga ega. Biroq stakkato, tovlanishlar va b.lar ularga qiyinchilik tug'diradi. Mumtoz opera adabiyotidan bunga misollar ko'p.

MARFA ARIYASI  
«Царская невеста» operasidan

N.Rimskiy-Korsakov

Larghetto assai. ♩ = 60

Взгля ни, вон там, над  
го - ло - вой, Про - стер - лось не - бо,  
как ша - тер. Как див - но бог со -  
ткал е - го, со - ткал е - го, что

ров - но бар - хат си - ний.

Metsso-soprano – ayol xonandalarining o'rta ovozi. U mazkur balandlikdagi tovushlari bilan kontraltoga yaqinlashadi. Yuqori parda tovushlari esa dramatik sopranodagi kabi, ammo shiraliroq.

Bunga Jorj Bizening mashhur «Karmen» operasidan bosh qahramonning «Xabanera» qo'shig'i yorqin misol buladi.

XABANERA  
«Karmen» operasidan

J.Bize

**Allegro quasi Andantino**

*p*

La-mour est un oi-sean re - bel-le Que nul ne

*pp*

peut ap - pri-voi - ser. Et c'est bien en vain qu'on l'ap - pel-le, S'il lui con - vient - de - re fu-

*port de voix.*

ser. Rien u'y fait mena-ce on pri - e - re. L'un par - le bien l'au - tre se

*port de voix.*

tait, Et c'est laut re-que je pre - fe-re Il n'a-rien dit: mais il me plait.

Kontralto – pastki pardalarni bemalol oladigan, ammo ishlov berish uchun moyilligi kamroq bo'lgan ovoz.

ZIBEL ROMANSI  
«Faust» operasidan, 3-parda, 1-ko'rinish

Sharl Guno (1818-1893)

**Andante**

*p* *cresc.* *cresc.* *dim.*



Quand tes jour - ne - es furent de joie et d'i - ures - se, Tout me sem

blait sou ri - re au - tour de moi. Mais, ton bon - heur se voi la de tris - tes se, Pleure, Mar que

ri - te, pleure, Mar que - ri - te, Vois, je re - pans des lar - mes a - vec - toi.

Erkak xonandalik ovozlari quyidagilarga ajratiladi:

Tenor – bunday ovoz, soprano singari, tik. U o'z navbatida quyidagi toifalardan iborat:

a) dramatik tenor (tenore de forza) – kuchli, yangrashi baland, tik tovushlari jarangdor.

Misol sifatida Jakomo Puchchinining «Toska» operasidan Kavaradossi ariyasidan lavha keltiramiz.

KAVARADOSSI ARIYASI  
«TOSKA» operasidan, 3-parda

J.Puchchini (1858-1924)

rit.  
*pp* *appassionato*

Mica-dea fra le brac- cia... Oh! dol-ci ba ci, o lan gui de ca-

*m.d.* *f* *pp* *con grande sentimento*

rez ze, men tr'io fre - men - te le bel - le for - me di scio - gliea dai ve - li!

rit. rit. ,

Sva - ni per sem-pre il so - gno mio d'a - mo - re... l'o - rae fug -

gi - ta e muo - io di - spi - ra - to!..

b) yengil tenor (tenore di grazia) – ovozi kuchsizroq, jilolar bilan oson boyitiladi. Juzeppe Verdingning «Traviata» operasidagi Alfred partiyasi shu ovoz uchun yozilgan.

ALFRED ARIYASI  
«TRAVIATA» operasidan

J.Verdi (1813-1901)

**Andante mosso.** ♩ = 112 *dolciss. a mezza voce*

Pa - rigi, o, ca - ra, noi la - sce - re mo, la vita u -

ni - ti tra - scor - re - re - mo... de' cor - si af - fan - ni com pen soa - vra - i, la - tua sa -

lu - te ri - fio - ri - ra So - spi - roe lu - ce tu mi sa -

ra - i tut - toil fu - tu - ro ne arri - de - ra

v) lirik tenor (mezzo carattere) – o‘rtacha kuchi bor, mayin yangraydigan tusga ega.  
J.Rossini «Sevilya sartaroshi» operasidan misol.

GRAF ALMAVIVA ARIYASI  
«Sevilya sartaroshi» operasidan

J.Rossini

Ec - co ri - den - te in cie - lo spun - ta la bel - la nu -

ro - ra, e tu non sor - gi an - co - ra, e

chius - so sve - gli - ra, si, tut - to gum - toil vi - ci -

na - to que - sto chius - so sre - gle - ra

Bariton – erkak xonandalikning o‘rtacha ovozi. Aksar hollarda yumshoq tusli – bu bilan past bariton ovozidan farqi kam. Yuqori pardalari erkin holda. J.Verdining «Traviyata» operasidan Jermon partiyasi shunday ovoz uchun yozilgan.

JERMON ARIYASI  
«Traviata» operasidan

J.Verdi (1813-1901)

Di Pro - ven-za ilmar,il suol chi dal cor ti can-cel-lo? chi dal

cor-ti can-cel-lo? di Pro - ven-za ilmar,il suol? Al na - tio ful-gent-e sol quai de-

sti - no ti fu - ro? qual de - sti - no ti fu - ro? al na -

tio ful-gen-te sol? Oh ram - men-ta pur-nel duol ch'i-vi gio - ja ate bril-lo,

*marcato*

*pp*

*dolce*

*pp*

*pp*

*pp*

Bas – yo'g'on erkak ovozi. U o'z navbatida quyidagi toifalarga ajratiladi:

a) yuqori bas (vasso cantante), yumshoq ovoz – jarangi bo'yicha pastki baritondan farqi kam. Baland pardalari erkin, pastdagilari kuchsizroq. J.Rossining «Sevilya sartaoshi» operasidan Bazilio partiyasi bas ovozi uchun mo'ljallangan.

BAZILIO ARIYASI  
«Sevilya sartaoshi» operasidan

J.Rossini

Allegro

ti - le, leg - ger - men - te, dol - ce - men - te in - co - min - cia in - co -

min - cia su - sur - rur. Pia - no, pia - no.

(er - ra, ter - ra, sot - to

ro - ce si - bi - lun - do



b) pastki bas (vasso profundo) – pastki pardalarda osonroq, yuqorida esa, ayniqsa ovoz ishlanmagan taqdirda, qiyinchilik bilan yuradi. Aksar hollarda bunday ovoz vazmin va kamharakat.

Sulaymon Yudakovning «Maysaraning ishi» operasidan Qozi qo‘shig‘i – «xo‘kiz qo‘shig‘i» bas ovozida yangraydi.

## QOZI QO‘SHIG‘I - XO‘KIZ" QO‘SHIG‘I

"Maysaraning ishi" operasidan, 3-parda

S.Yudakov

**Moderato assai**

*mp*

*mp*

Tu-shim mo'v.. Yo - ki o'ng-da ko'r

ga-nim mo'v?.. Bu Oy-xon yor - ni is-tab kel - ga-nim mo'v?..

### NAFAS OLISH

Ovozni oqilona qo‘yish va undan keyin turadigan kuy-ohang tuzilmalarini ajrata olish uchun birlamchi va eng muhim shartlardan biri, - bu to‘g‘ri nafas olishdir. Xonandalik mutaxassisligi bo‘yicha eng mashhur o‘qituvchilar ovozni takomillashtirish ishida «xonandalik san‘ati bu nafas olish maktabi», – degan fikrdan kelib chiqishadi.

Vokal – bu tovush to‘lqinlari bo‘lib, uni nafas olish va uni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bilan amalga oshiriladi. Xonandalik ovozi hosil bo‘lishda nafas olish eng katta rol o‘ynaydi. To‘g‘ri nafas olish kuylashning negizini tashkil etadi. Ovoz qo‘yishning bosh siri ham shunda yotadi. Demak, ushbu masalaga etarlicha e‘tibor qaratish kerak.

Tovushni ravon chiqarish uchun to'g'ri nafas birinchi o'rindagi vazifani bajarsa, ijrochilik mahorati, nolalar, tovushni kichraytirish va kattalashtirish, qochirimlarni me'yorida ijro eta olish, ularga naqsh berish va h.k.lar kasbiy ijrochilik darajasiga kiradi.

Nafas olishga alohida diqqat berilishi ba'zilarga tushunarli bo'lmasligi mumkin. Zero, nafas olish, umuman olganda, o'z-o'zicha va go'yo ixtiyorsiz amalga oshaveradi. Ammo so'zlashuvga qaraganda kuylashda parda yangrashi to'liqroq va davomli bo'lishi lozimligi bois, kuylashda havoni o'pkada ko'proq muddatga ushlab to'g'ri keladi. Shu tariqa nafas olish undan ko'ra faolroq jarayon sifatida kechadi. Bunday kasbiy ko'nikma esa faqat mehnat va maxsus mashqlar yordamida o'zlashtiriladi.

Havo og'iz va burun teshiklari orqali halqumga kiradi. U erda «hiqildoqning ovoz oralig'i» orqali nafas olish tomog'idan o'tib o'pkani to'ldiradi.

Kuylash o'quv fani nuqtai nazaridan nafas olishning uch xili uchraydi:

- 1) tepa qovurg'adan, yoki ko'krakdan;
- 2) yon tomondan, yoki yon qovurg'adan;
- 3) diafragma, ya'ni ko'krak-qursoq pardadan, ko'krak-qorindan.

Nafas chiqarish esa to'g'ri qorin mushaklarning qisqartishi, qovurg'alar ostidagi mushaklar qo'shilishi bilan to'ldiriladi. Kuchaytirilgan nafas chiqarilishida keng qorin mushaklari ham qisqartiladi<sup>4</sup>. Nafas olishning xuddi shu turi amaliy jihatdan «Buyuk Bolonya maktabi» tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, «diafragmali» nomi ostida uni eski italyan maestrolar tavsiya etishgan.

Toza-diafragmatik nafas olish turini eski italyan maktabi tavsiya etgan turi bilan chalkashtirib yubormaslik lozim. Buning uchun so'nggi turi ushbu qo'llanmada «pastki qovurg'a-diafragmali» deb yuritiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nafas olishning bu turi haqida «Buyuk Bolonya maktabi» bilgan holda XVI asrdan e'tiboran uni ilmiy-nazariy tomondan emas, balki amaliy jihatdan qo'llab kelgan. Buning natijasida XVII, XVIII va XIX asrning birinchi yarmida talaygina dunyoga mashhur xonandalar etishgan.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, Bolonya yoki eski italyan maktabi tomonidan amaliy ishlab chiqilgan nafas olish turi, ya'ni «pastki qovurg'a-diafragmali», kuylashda qo'llash uchun muntazam mashqlar o'tkazishni talab etadi.

Ushbu nafas olish turi tabiiy, ya'ni tanasi sokin holatidagi har bir sog'lom kishining nafas olishiga asoslangan. Shunday ekan, uning takomillashuvi muntazam mashqlarni talab etishi ko'pchilikka g'alati tuyulishi mumkin. Ammo quyidagilarni yoddan chiqarmasligimiz lozim.

✓ Birinchidan, kuylash tovushi so'zlash tovushiga nisbatan o'pkada ko'proq havo hajmining to'planishini talab etadi.

✓ Ikkinchidan, o'pkada havoni ushlab qolish ko'nikmasiga ega bo'lish kerak.

✓ Uchinchidan, nafas olish mushaklari o'pkada to'plangan havo hajmini boshqarishga ko'nikib, kuylayotganda sekin va ravon havoni chiqarishga rioya qilishi lozim.

Ovoz qo'yish uslubiyotining asosiy maksadi nima? Avvalambor ovoz ravonligini, silliqligini, kuchini, diapazon kengayishini, tembri shakllanishi, engilrok ovozlarda uning uchishini, ovoz yangroqligini ta'minlashdan iborat.

Ayrim yosh o'qituvchilar ovozni qichqiriq shaklida ijro ettirish bilan maqsadga erishdim deb o'ylashadi. Bu bilan o'z-o'zidan tovushlarni tekis chiqartira olishdan maxrum bo'lishadi. Ovoz tarbiyasining dastlabki bosqichda uning diapazon ko'lamini kengaytirish harakatlari muhim o'rin tutadi.

Katta sahnadagi ko'p yillik ijro amaliyotidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tarbiyalanuvchi ovozni bir tekisda o'stirishga erishish zarur. Buning uchun, masalan, quyidagi asarlarga murojaat etish tavsiya etiladi.

---

<sup>4</sup> Quyida mushaklarning harakatlanishi ta'riflanadi.

SERPINO ARIYASI  
«La Serva-Padrona» operasidan

J.Pergolezi

Allegretto

*p*  
Stiz - zo - so, mio stiz - zo-so, voi fa - teil bo - ri - o-so,

*mf pp f p f*

ma, no, ma non vi puo gio - va - re,

*p f*

ma, no, ma non vi puo gio - va - re

*p f*

FIALKI

A.Skarlatti (1659-1725)

Allegretto

Ru-gia-do-se, o-do-

-ro-se, vi-o-let-te gra-zi-o-se!

Ru-gia-do-se, o-do-ro-se, vi-o-let-te gra-zi-

o-se, vi-o-let-te gra-zi-o-se, Voi vi sta-te ver-go-gno-se,

Mashg'ulotlar unumli o'tishi uchun nafas olish to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. Jismonan chiniqish uchun ochiq havoda muntazam yugurish, suv havzalarida suzish katta foyda keltiradi. Sport turlaridan futbol, voleybol, basketbol bilan shug'ullanish ham maqsadga muvofiq. Bular bilan shug'ullana olmaydiganlar nafas uchun ishlab chiqilgan mashqlarni har doim bajarib yurishi shart. Bo'lg'usi xonandaning organizmi sog'lom, baquvvat, sportta'bo'lsa, shundagina nafas olish bo'yicha muammo bo'lmaydi.

Ma'lumki, nafas olish organizmning qorin bo'shlig'i ishtirokida amalga oshadi. Bunda ko'krak qafasi osuda bog'liqlik vazifasini bajaradi xolos. Qorinda to'ldirilgan havo diafragma orqali o'tib, burundan chiqariladi. Natijada nafasni kimki tejamkorlik bilan ishlata bilsa, shu kishida tovushni ko'proq ushlab turishga va uni chiroyli etkazib berishga imkon paydo bo'ladi.

Qo'llanmaning ushbu eng muhim qismini qayta-qayta keltirilgan ko'rsatma bilan tugallash lozim ko'rinadi: modomiki kim ovoz qo'yilishi oqilona bajarilishini, talaffuzi keyinchalik ham aniq bo'lishini istasa, – u kuylash fanini boshlaridanoq to'g'ri nafas olishga alohida e'tibor qaratsin. Barcha nafas mushaklarini o'zaro muvofiqlashtirgan holda harakatga keltirishga o'rgatsin. Shularga erishgan holdagina u, ehtimol, kelgusidagi ko'ngil qolishlarning oldini olgan, o'z malakasini o'stirish kafolatini yaratgan bo'ladi.

## TOVUSH TUSI

Demak, kishi ovozing tusi rezonator bo'shliqlari, ularning sifati, shakli, o'zaro joylashuviga, eng muhimi esa – ularning bir biri bilan hamda asosiy tonga nisbatan uyg'unligiga bog'liqdir.

Ovoz tembrini yorqinlashtirish uchun rezonatorlarga ahamiyat berish lozim. Tabiiy rezonatorlar bo'sh sharga, naychalarga va h.k.larga o'xshash bo'lishi mumkin. Inson organizmida juda yaxshi joylashgan hiqildoq, qulay ovoz paylari chiroyli tovush chiqarishga imkoniyat yaratadi. Lekin rezonatorlar yaxshi ishlamasa hosil bo'lgan tovush hech qachon chiroyli, yoqimli tembrga ega bo'la olmaydi. Hiqildoq bilan rezonatorning birlashuvi xushovoz hamda kuchli ovoz chiqarish kalitidir.

Ovoz apparatining barcha bo'shliq-rezonatorlarini ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin:

- 1) o'zgaraydigan bo'shliq-rezonatorlar;
- 2) o'zgaruvchan bo'shliq-rezonatorlar.

Birinchi tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) hiqildoqdan pastda yotadigan bo'shliqlar, ya'ni ko'krak bo'shlig'i va nafas o'tadigan tomoq;

b) yuqori rezonatorlar deb ataluvchi, ya'ni burun bo'shlig'i, shuningdek, gaymor bo'shlig'i, ponasimon va qisman peshona bo'shliqlari<sup>5</sup>.

Go'zal va yoqimli tovush hosil bo'lishi uchun xonanda nafaqat yaxshi ovoz paychalariga, balki shunga yarasha bo'shliq-rezonatorlarga ham ega bo'lishi kerak.

Xonandaning ajoyib ovoz torlari ila hiqildoq'i bo'lishi mumkin. Biroq bo'shliq-rezonatorlar unga muvofiq kelmasa, u holda ovoz yoqimsiz chiqadi. Yoqimsiz sado chiqaradigan hiqildoq esa, hatto yaxshi rezonatorlar bilan ham, noxush natijalarni yuzaga keltiradi.

Agar bir xil balandlikda hosil etilgan ikkita tovushdan biri ochiq, ikkinchisi esa yopiq tusda bo'lsa, ochiq tusli tovushda qarshisiga nisbatan tovush kanali qisqaroq, og'iz ochilishi kattaroq, umuman olganda, tomoq hajmi kichikroq bo'ladi.

Bo'shliq-rezonatorlar shaklida ikkala tovush o'rtasidagi tafovut shundan paydo bo'ladiki, ochiq tusli tovushda bo'shliq-rezonatorlar yuqori obertonlarni kuchaytiradi. Yopiq tusli tovushda, aksincha, bo'shliq-rezonatorlar quyi obertonlarni kuchaytiradi.

Ovoz bo'shlig'ida tishlar, til, qattiq va yumshoq tanglay ajratiladi. So'nggisi tilcha bilan yakunlanadi va harakatchan yohud sokin holatda ovoz bo'shlig'ini halqum bo'shlig'idan ajratib turadi. Ovoz va halqum bo'shliqlari o'rtasida «tanglay yoylari» joylashgan bo'ladi. Ular qisqarganda bir-biriga yaqinlashadi, yoki bo'shshib yana suriladi. Shu erda «bodomsimon bezlar» joylashgan bo'ladi.

<sup>5</sup> Ovoz qo'yilayotganda tovush to'lqinlari peshona bo'shlig'iga o'tmasligiga e'tibor qaratish kerak. Aks holda xunik, «peshonasimon tovush» hosil bo'ladi.

Unli «a» ni kuylaganda og'iz va lablar yassi shaklni vujudga keltirishi kerak. Ya'ni, jilmayishga o'xshash ishora qilgandek, yuqori keskir<sup>6</sup> tishlarning quyi qismi ko'rinadi. Lablarning yassi shakli, shuningdek og'iz ochilishi kengligi hammada ham bir xil emas. Tovush hosil bo'layotganda unisi ham, bunisi ham lablar va og'izning o'ziga xos tuzilishiga bog'liq.

Og'iz ochilishi haqidagi gaplarning hammasi, asosan, kuylagandagi unli yumaloq «a» fonemasiga tegishli. Boshqa unilarni kuylaganda, tabiiyki, lab va og'iz fiziologik jihatdan o'zgarib boradi: «ye» da og'iz biroz kengayadi, ya'ni tishlar ko'proq ko'rinadi; «i» da og'iz deyarli «ye» paytidagidek bo'lib, faqat daxanlar bir-biriga yaqinlashadi; «o» da shu unlini tasvirlagandek lablar yumaloqroq shaklga ega bo'ladi, «u» da lablarning yassilanishi «o» ga qaraganda kamayadi va ular biroz oldinga cho'ziladi.

